

## "ILLIYADA" DOSTONI VA U HAQIDA OLIB BORILGAN TADQIQOT, LUG'ATLAR TAHLILI

**Rahmatova Mahfuzaxon Ravshanjon qizi**

*Farg'ona Davlat universiteti Filologiya fakulteti tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi  
1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Homerning "Illiada" dostoni jahon adabiyoti tarixidagi eng qadimgi va mashhur epik dostonlardan biridir. Bu doston lirika usulida yozilgan bo'lib, o'sha davr shart-sharoitlarni yoritib bergan. Asar 10-yil davom etgan Troya urushining so'nggi yilidagi voqealarini hikoya qiladi. Dostonda eng kuchli yunon jangchisi, Axilesning g'azabi va uning oqibatlari haqida va Axilesning yo'l boshchi Agamenon bilan janjallashib, jang maydoni tark etishdan boshlanadi. Bu holat yunonlarning mag'lubiyatiga, Axilesning eng yaqin do'sti, tutingan ukasi, Patroklning o'limiga va nihoyat, Axilesning qasos olish uchun qaytib, Troya shahzodasi Gektarni o'ldirishga olib keldi. Asarda insoniy tuyg'ular, qahramaonlaik taqdirining muqarrarlighi va ilohiy kuchlarning inson hayotiga ta'siri mahorat bilan tasvirlangan. "Ilyada" nafaqat harbiy to'qnashular tasviri, balki inson psixologiyasi shon sharaf va vatanparvarlik haqidagi chuqur falsafiy asar.*

**Kalit so'zlar:** *Troya urushi, yunonlar, yunon xudolari, xosiyatsiz sovg'a, eng zaif joy.*

**Annotation:** *Homer's "Illid" is one of the oldest and most famous epic poems in the history of world literature. This epic is written in lyrical style, reflecting the conditions of that time. The work tells the story of the last year of the Trojan War, which lasted 10 years. The epic begins with the anger of strongest Greek warrior, Achilles, and its consequences, and begins with Achilles' quarrel with his leader Agamemnon and his departure from the battlefield. This situation led to the defeat of the Greeks, the death of Achilles' best friend and captive brother, Patroclus, and finally, Achilles' return to take revenge and kill the Trojan prince Hector. The work skillfully depicts human feelings, the inevitability of the heroic fate, and the influence of divine forces of human life. "The I'll load" is not only a depiction of military conflicts, but also a profound philosophical work about human psychology, honor, and patriotism.*

**Key words:** *The Trojan War, Greek, greek gods, unusual gift, weakest point.*

**Аннотация:** <<Илиада>> Хомер - Одна из древнейших и самых известных эпических поэм в истории мировой литературы. Эта эпопея написана в лирическом стиле, отражающем условия того времени. Произведение рассказывает историю последнего года троянской войны, которая длилась десять лет. Эпопея начинается с гнева сильнейшего грека Ахилеса и его распри с его предводителем Агамемноном и его ухода с поля боя. Эта ситуация привела к поражению греков, смерти лучшего друга Ахилеса и пленного брата Патрокла, и наконец к возвращению Ахилеса, чтобы отомстить и убить троянского принца Гектора. Произведение мастерски изображает человеческие чувства, неизбежность героической судьбы <<Илиада>> -

*эта не только описание войны конфликтов, но и глубокие Филологических произведения о человеческой психологии, чести и патриотизме.*

**Ключевые слова:** греки, греческий боги, необычные дар, самое слабое место.

"Illiada va odessiya" dostonlari mahorat bilan dunyoga kelgan. Jahon adabiyotining o'lmas buyuk eposi Homerning bu dostonlari hozirgacha kitobxonlar qalbidan joy olgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Homer hayoti haqida to'liq ma'lumotlar yo'qligi sababli mill. avv. XII -VII asrlar oralig'ida deb tahmin qilinadi. Homerni juda ko'plab xalqlar o'zlashtirishga harakat qiladilar va Afina, Rados, Smirna, Golofon, Argon, Salmon, Xiyosliklar davo qiladilar. Bundan urinib turibdiki, Homer juda mahoratli va mukammal darajadagi inson bo'lgan.



Ba'zi manbalarda Homer so'qir bo'lgan, o'z asarlarini baxshilar kabi kuylab berganligi aytiladi. Bunga ko'plab folklorshunoslar qo'shiladilar. Dostonlarning uniki ekanligini sababi esa ikkovi ham qahramonlik eposi va yunon mifologiyasidagi hayot va tabiatda yaratilgan. Yunonlarning o'sha davrdagi dunyo qarashlarini real voqealar bilan bog'liq. Yani Troya afsonaviy shahar bo'lib kelgan, ammo arxeolog G. Shpilman bu shahar borligini isbotlaydi. Mana shunday reallik va fantaziyaning zarrachalarini birlashtirgan va chaqmoq hosil qilgan Homer edi. Hamda ularni o'zbek tiliga Mirtemir, Qodir Mirmuhammedov o'rganadilar va tarjima qiladilar.

Homer aytadiki, "Taqdir-bu muqarrarlik, bundan na botir, na qo'rqqoq qochib qutula oladi," deydi. Mana shu so'zlarning isbotini biz Axiles obrazida uchratamiz. Ya'ni Axilesning taqdiri Yunon xudolari tomonidan belgilangan edi. Axillning onasi Fetida o'g'lini barhayot bo'lishini istagan va Stiks daryosiga botirib olgan. Ayni paytda Axilesning onasi ushlagan tovonini suvga tegmasdan qoladi. Jangda Axiles tovonidan o'q yeb vafot etadi. Xudolar unga ikki yo'l berishadi, birinchisi: farzandlari bilan baxtli yashashni, ammo nomsiz, nishonsiz o'tishini aytadi. Ikkinchisi: pahlavon bo'lib, butun dunyoda nom qoldirish edi, Axiles Ikkinchi yo'lni tanlaydi. Axiles juda qaysar jangchi edi

uni g'azabga keltirgan bir necha sabablari bor edi, Axiles hech kimga bo'ysunmas va hech kimni qirol deb tan olmas edi, U Agamemnon tomonidan haqoratladi va eng yaqin do'sti hamda tutingan ukasi Patroklning o'limi sabab bo'ladi. Patrokl Axilesning o'rniga jangga kiradi va Gektor tomonidan o'ldiriladi. Bu esa Axilesni juda g'azabga keltiradi, u Troya shahzodasi Gektar bilan jang qiladi va uni o'ldiradi. Ammo Gektorning jasadini uning otasi Priamga qaytaradi, mana shunda haqiqiy hurmat va yunon madaniyati ko'zga tashlanadi. Afsonalarga ko'ra, Axilesning zaif joyi bu tovonni ekanligini Zevs va uning onasi bilar edi, Paris undan qasos olishni istaydi, u ham Axilesning zaif joyini bilib oladi va jangda uning tomoniga o'q uzadi, shunday qilib tengsiz jangchi Axiles vafot etadi.



Aytib o'tilganidek xudolar Axilesning taqdirini belgiladilar, nafaqat uni balki Paris va Yelenani ham uchrashuvlari shunchaki tasodif emas edi. Bu xudolarning bir rejasi edi. Zevsning ayoli Hera ularning qalbiga muhabbatni tushiradi. Hamda Troya shohi Priamning o'g'li Paris Sparta shohi Menelayning xotini Yelenani o'g'irlab keladi va bu urush boshlanishiga sabab va bahonaga aylanadi.



Markaziy voqea bu Troya urushi edi. (Troya hozirda Kichik Osiyoda Egey dengizining sharqiy qirg'oqlaridagi Troada yarim orolida joylashgan) XIX asrga qadar bu shahar huddi Atlantida kabi afsona edi, ammo aytib o'tilganidek 1870-yilda german

arxeolog Genrix Shlifman uni isbotladi. Ya'ni uni Turkiyaning Issarlix yoki Xissarlig' tepaligidan 15-metr chuqurlikda shahar qoldiqlarini topadi.Undan keyin ham bir necha olimlar izlanishlar qiladi va Troya aholisini 10mingga yaqin ekanligi,madaniyatini, urf-odatlarini o'rganishadi.



Ko'plab o'quvchilar Troya urushi va "Illiya" haqida suhbat ketsa, albatta,, Troya oti,, ko'zlarining oldida gavdalanadi.Ammo bu haqida "Illiya" dostonida emas,balki "Odessiya" dostonida batafsil aytib o'tilgan.Lekin bu haqida to'xtaladigan bo'lsak ,troyaliklar "Troya ot"ini "xosiyatsiz sovg'a" deyishadii.Greklar mag'lubiyatga uchrashiga oz qolganda ular mug'ombirona yo'l tutadilar,yog'ochdan ot yasab mag'lubiyatni tan olgan holda troyaliklarga sovg'a tariqasida darvoza oldida qoldiradilar.Ot ichiga yunonlarning eng yaxshi jangchilari joylashgan edi,qolgan bir qismi yaqin atrofdagi tepalikga edilar.Ular tunda hujumga o'tadilar.Shahar qamal qilinadi,yunonlar esa orzulariga erishishadi



Dostonda yozilishicha, yunonlarning 1186ta kelmasi bor edi,ammo bu aqlga sig'mas ma'lumot,chunki bu kemalar qurilgan taqdirda ham ularni askarlar va oziq-ovqat bilan to'ldirish uchun yana bir necha o'n yil kerak edi.Hamda dostonda bir necha

qahramonlar bor, bular: Axiles, Ayaks, Patrokul, Agamemnon va Odissey, Troyaliklardan: Gektor, Kaft, Sarpedont, Eney jasorat ko'rsatgan. Troya borligi isbotlangan, ammo bu jangchilarning borligi haqida tadqiqotlarga ko'ra olimlar ular tajribali jangchilar shuning uchun ularning nomi shohlarnikidan ham mashhur ekanligini aytishadi. Bu doston "Hollywood" rejissori va aktyorlari tomonidan suratga olingan. Hatto kino uchun yog'och ot ham yasalgan. "Hollywood" bu otni Turkiyaning Chanakalli shahriga sovg'a qilgan.

Nima bo'lganda ham bu asarlar shuncha yil o'tsa ham munozaralar, bahslar va kitobxonlar o'rtasidadir. Vissarion Beleniskiy shunday deydi: "Illiyada bu shunchaki doston emas, balki butun bir xalqning ensiklopediyasidir. Unda qadimgi yunonlarning dini, falsafasi, axloqi va hayoti jamlangana". Bundan ko'rinib turibdiki, Homer dostonlari butun Yevropani va jahon adabiyotiga tamal toshini qo'ygan.

Axiles, Odissey va ularni yaratuvchisi bo'lmish Homer ham munozara markazida bo'lsa-da eramizdan avvalgi holatni, siyosatini, din va madaniyatni ochib berdi. Bunday dostonlar mana necha ming asr o'tgan bo'lsa ham yaratilgan emas. 24ta qo'shiqdan iborat bo'lgan bu asar o'zining murakkab va qahramonlar obrazi teranligi bilan jahon adabiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Bunda asosiy g'oya inson va taqdir, urushning fojiaiy mohiyati, Gumanizm va Qahramonlikdir. "Homer dostonlari -insoniyat bolaligining go'zal aksidir. Undagi har bir satr hayot nafasi bilan to'la" - deydi rus shoiri Aleksandr Sergeevich Pushkin

Dostonni tarjima qilish paytida ayrim so'z va iboralar tasnifi.

Obdor-yaltiroq, qoplangan

Shunday deya dubulg'asi obdor Gektor tark etdi, uyni

Zavja-xotin

Mis sovutli Gektorga shul shohning qizi bo'lgandi zavja.

Dilovar-mard, jasur

Boshginangga koshki balo bo'lmasaydi dilovarliliging.

Nahra-devor tuynugi

Nahra borki, dushman uchun hamla qilmoq qulaydir undan.

Ishtiboh-shubha

Ishtibohda ko'nglim mening

Bodpo-shamoldan tez, uchqur

Bodpo yigit shahar bo'ylab yela ketdi misli bro deb.

Muhorib-jangchi

Ishlaringni qoralolmas: sen dilovar muhoribdirsan.

Muzd-mukofot

Lekin bu poyga, poygachilar oddiy muzdi:

G'oratgor-talonchi

Bugun esa yeldek chopqir va g'oyatgor Axill Gektorni tirqiratib quvlamoqda.

Qopqa-darvoza

Har gal qopqa darajasidan o'tayotganda Gektor sarbaland, minoraga o'zin urmoq bo'lar edi.

Mash'um- baxtsiz,ko'ngilsiz.  
Gektor har gal mash'um qismat va o'limdan qocholmasdi ham  
Sarchashma-buloq (ko'chma ma'noda -bosh manba)  
To'rtinchi bor yetganda ular Ksanf sarchashmasiga  
Chashmi tobon-nurli,yorug' ko'zli  
Chashmi tobon Afinaga kelib Peley o'g'li qoshiga.  
Tavakkul qilmoq-xayrixohlik bilan yuzlanmoq.  
Unda shunday dabdabali so'zlar ila tavajjuh qildi.  
Ag'yor-begona  
O,sen manfur ag'yor Gektor.  
Cho'ng-ulkan  
Dedi u ham cho'ng nayzasin,quchoqlashlab turib itqitdi.  
Qattol- odam o'ldiruvchi  
"Zarbang bekor ketdi ,qattol!"  
Chatnamoq- darz ketmoq  
Nayza urildi-yu chatnab qaytdi ortga qilgandan  
Talx-yomon,achchiq  
Zorlandi kuch va yoshligin tortib olgan talx qismatidan.  
Muhoraba-urush  
U ne-ne o'g'illarim hazon qildi muhorabadan.  
Xobxona -yotoqxona  
Aleksandr (Paris) uchun o'shal ahli me'mor g'oyat serhasham  
xobxonayu,mehmonxona  
Tegra-tevarak atrof  
Yaraqlardi va shuningdek, oltin halqa tig' to'g'risida.  
Badkirdor-yomon,qabih,haqoratlanuvchi  
Quyun-qattiq shamol  
Qayinog'a tingla badbaxt va behayo kelinning azon!Gar onamning ko'zi menga  
yoritgan dam badkirdor quyun  
Mardum-xalq, kishilar.  
Bilmas edi bu qorinlar ,to'kilmaydi marosimlar qoni.  
Ching -katta  
Otamni u butun sovut yarog'i-la yondirgan edi ,Ching gulxanda va qabr uygan edi  
xoki to'kilgan yerda  
Rihlat-ko'chish,o'lish  
Ular bari bir mahalda rihlat etdi Aid Qrimga  
Manbalar : Hammabop o'zbek tili (Zulfiya Rashidova),Qadimgi dunyo tarixi, Turfa  
olam.uz,arxiv.uz.often plus.uz,"Illiyada"dostoni.